# Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2020- yil yanvar-oktabr)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2020-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 8704,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 111,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (83,9 %) ni tashkil etdi.







***B***– *Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,* ***C****-Ishlab chiqaradigan sanoat* ***D****-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash,* ***E****-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI*** *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 15,8 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 14,0 % ga hamda elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 12,1 % ga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining - 8,5 % ga pasayishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, *% da*




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 46,5 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*( yil boshidan I-X-oylar, % da )*




## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-oktabr | 2020- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Shag‘al , ming t.** | 11,0 | 0 | -11,0 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7304,6 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,9 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**, *% da*




O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 2,7 % ni (2019- yilning yanvar-oktabr oylarida - 3,9 %), o‘rta-yuqori texnologiyali - 6,7 % (6,5 %), o‘rta-quyi texnologiyali - 12,0 % (11,4 %) va quyi texnologiyalisi - 78,6 % (78,3 %) ni tashkil etdi.

**Yuqori texnologiyali** | **O‘rta-yuqori texnologiyali**



| O‘rta-quyi texnologiyali | | Quyi texnologiyali | |
|---|---|---|---|
| Ulushi % da | | Ulushi % da | |
| 11,4 | 2019- y. | 78,3 | 2019- y. |
| 12,0 | 2020- y. | 78,6 | 2020- y. |

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 37,8 % (2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 91,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 23,8 % (2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,0 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,8 % (2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 107,5 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,2 % (2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 206,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,1 % (2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 86,6 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2020- yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 13,5 ming tonna tozalangan o’simlik yog’i (2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 45,7 % ga o‘sgan), 107,9 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (12,6 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-oktabr | 2020- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Paxta tolasi,** ming tonna | 18,2 | 37,7 | 19,5 |
| **Aroq –** ming litr 100 % spirt | 267,2 | 329,2 | 62,0 |
| **Konyak spirti –** ming litr 100 % spirt | 29,2 | 15,1 | -14,1 |
| **Vino,** ming litr | 1 022,0 | 609,1 | -412,9 |
| **Un,** ming tonna | 95,7 | 107,9 | 12,2 |
| **O'simlik yog'i (tozalangan),** ming tonna | 9,2 | 13,5 | 4,3 |

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida*




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1277,3 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (14,7 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,1 % ga oshganligi kuzatildi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*( yil boshidan I-X-oylar, % da )*




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-oktabr | 2020- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** mln.kVt/s | 12,5 | 4 151,8 | 4 139,3 |
| **Issiqlik energiyasi,** ming gkal | 60,0 | 67,5 | 7,5 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish




Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 75,7 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*( yil boshidan I-X-oylar, % da )*







| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-oktabr | 2020- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo’yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** mlrd.so‘m | 27,0 | 38,3 | 18,3 |
| **Oqava suvlarni shlami,** mlrd.so‘m | 3,2 | 4,2 | 1,0 |
| **Shahar xo’jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig’ish bo’yicha xizmatlar,** mlrd. so’m | 16,2 | 19,1 | 2,9 |
| **To'qimachilik chiqindilari,** tonna | | 9,0 | 9,0 |
| **Xavfsiz metall chiqindilari,** ming.t | 2,3 | | -2,3 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo’yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 41,9 % ga, oqava suvlarni shlami 31,2 % ga hamda shahar xo’jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig’ish bo’yicha xizmatlar 17,9 % ga oshganligi kuzatildi.

### Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4974,0 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 9,4 % ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 57,1 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,6 % (2019- yil yanvar-oktabr oylarida 1,0 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib, 43,0 % ni, shuningdek, Namangan tumani 11,0 % ni, Mingbuloq tumani 6,5 % ni, Uchqo’rg’on tumani 6,2 % ni, Chust tumani 6,1 % ni hamda Kosonsoy tumani ham 5,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (109,4 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Norin (120,7 %), Chortoq (114,8 %), Uchqo’rg’on (112,7 %), Pop (110,7 %), Mingbuloq (5,6 m) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**
*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida*



| *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|
| 2 137,1 | 43,0 | 100,7 |
| **Namangan sh.** | | |



| *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|
| 276,5 | 5,6 | 105,3 |
| **To’raqo’rg’on** | | |



| *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|



| *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Mingbuloq | 322,2 | 6,5 | 5,6 m |
| Uychi | 209,8 | 4,2 | 100,2 |
| Kosonsoy | 280,7 | 5,6 | 108,5 |
| Uchqo’rg’on | 308,9 | 6,2 | 112,7 |
| Namangan | 549,4 | 11,0 | 98,0 |
| Chortoq | 129,5 | 2,6 | 114,8 |
| Norin | 84,3 | 1,7 | 120,7 |
| Chust | 304,1 | 6,1 | 108,4 |
| Pop | 243,4 | 4,9 | 110,7 |
| Yangiqo’rg’on | 128,0 | 2,6 | 104,7 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib, 40,3 % ni, shuningdek, Namangan tumani 12,1 % ni, Mingbuloq tumani 9,4 % ni hamda Kosonsoy tumani 7,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich Mingbuloq (7,5 marta), Norin (127,5 %), To’raqo’rg’on (127,2 %) hamda Uchqo’rg’on (104,1 %) tumanlarida qayd etildi.

### Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Namangan sh. | 1291,1 | 40,3 | 97,4 |
| To’qaqo’rg’on | 222,9 | 7,0 | 127,2 |
| Mingbuloq | 300,9 | 9,4 | 7,5 m |
| Uychi | 131,5 | 4,1 | 85,8 |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Kosonsoy | 235,4 | 7,4 | 103,9 |
| Uchqo’rg’on | 108,0 | 3,4 | 104,1 |
| Namangan | 385,5 | 12,1 | 94,4 |
| Chortoq | 62,9 | 2,0 | 93,0 |
| Norin | 45,1 | 1,4 | 127,5 |
| Chust | 243,7 | 7,6 | 103,3 |
| Pop | 85,3 | 2,7 | 93,5 |
| Yangiqo’rg’on | 81,5 | 2,6 | 101,2 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib, 47,6 % ni, shuningdek, Uchqo’rg’on tumani 11,3 % ni, Pop tumani esa 8,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Chortoq tumani (147,4 %), Kosonsoy tumani (140,0 %) hamda Uychi tumanida (132,3 %) qayd etildi.

**Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**

*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Namangan sh. | 846,0 | 47,6 | 106,2 |
| To’qaqo’rg’on | 53,7 | 3,0 | 61,4 |
| Mingbuloq | 21,4 | 1,2 | 119,2 |
| Uychi | 78,2 | 4,4 | 132,3 |
| Kosonsoy | 45,3 | 2,5 | 143,0 |
| Uchqo’rg’on | 200,9 | 11,3 | 117,9 |
| | 163,8 | 9,2 | 110,4 |
| | 66,6 | 3,7 | 147,4 |

**Namangan** | **Chortoq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 39,3 | 2,2 | 113,6 |

**Norin**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 158,2 | 8,9 | 122,6 |

**Pop**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 60,4 | 3,4 | 135,8 |

**Chust**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 46,4 | 2,6 | 111,6 |

**Yangiqo’rg’on**

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2110,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 24,3 % ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida*

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 8 704,1 | 100,0 | 111,3 |

**Viloyat**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 3 328,4 | 38,1 | 103,3 |

**Namangan sh**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 1 233,9 | 14,2 | 105,3 |

**To’raqo’rg’on**

| Млрд. сум | Ulushi % da | O‘sish sur’ati |
|---|---|---|
| 418,3 | 4,8 | 109,9 |

**Mingbuloq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 506,8 | 5,8 | 86,9 |

**Uychi**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 299,5 | 3,4 | 101,7 |

**Kosonsoy**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 709,7 | 8,2 | 133,6 |

**Uchqo’rg’on**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 739,9 | 8,5 | 105,0 |

**Namangan**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 147,2 | 1,7 | 108,1 |

**Chortoq**

| Mlrd. | Ulushi | O‘sishi |
|---|---|---|

| Mlrd. | Ulushi | O‘sishi |
|---|---|---|

| so‘m | % da | % da |
|---|---|---|
| 303,2 | 3,5 | 111,2 |

**Norin**

| so‘m | % da | % da |
|---|---|---|
| 489,6 | 5,6 | 126,5 |

**Chust**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 390,3 | 4,5 | 105,7 |

**Pop**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 137,3 | 1,6 | 116,9 |

**Yangiqo’rg’on**

**Hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati** *% da*

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida Uchqo’rg’on (2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 133,6 %), Chust (126,5 %), Yangiqo’rg’on (116,9 %), Norin (111,2 %) hamda Mingbuloq(109,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

**Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi,** ***% da*** | **Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o‘sish sur’ati, % da**



## Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 38,2 % i) hamda To’raqo’rg’on (14,2 %), Namangan (8,5 %), Uchqo’rg’on (8,2 %), va Uychi (5,8 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Yangiqo’rg’on (1,6 %) hamda Chortoq (1,7 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To’raqo’rg’on tumani (5 432,2 ming so’m), Namangan shahrida (5 272,4 ming so’m), Uchqo’rg’on (4 110,1 ming so’m), Namangan tumani (4 309,7 ming so’m) va Mingbuloq tumani (3 302,3 ming so’m) tumanlarida o’rtacha viloyat darajasi ko’rsatkichidan (3 073,9 ming so’m) yuqoriligini ko’rsatmoqda.

Bu borada eng past ko’rsatkich Yangiqo’rg’on (627,1 ming so’m),

Chortoq (736,8 ming so'm), Kosonsoy (1 425,6 ming so'm) va Pop (1 771,4 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, ming so'm*

| | *Sanoat mahsulotlari* | *Iste'mol mahsulotlari* |
|---|---|---|
| Viloyat | 3 073,9 | 1 756,6 |
| Namangan sh | 5 272,4 | 3 385,3 |
| To'raqo'rg'on | 5 432,2 | 1 217,2 |
| Mingbuloq | 3 302,3 | 2 543,8 |
| Uychi | 2 369,1 | 980,6 |
| Kosonsoy | 1 425,6 | 1 336,2 |
| Uchqo'rgo'n | 4 110,1 | 1 788,7 |
| Namangan | 4 109,7 | 3 051,5 |
| Chortoq | 736,8 | 648,3 |
| Norin | 1 845,2 | 513,0 |
| Chust | 1 837,8 | 1 141,6 |
| Pop | 1 771,4 | 1 105,1 |
| Yangiqo'rg'on | 627,1 | 584,7 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 273,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 49,1 % ni tashkil etdi.






Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo`rg`on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (98,4 %) tumanlari va Namangan shahrida (62,0 %) kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng kichkina ulush Mingbuloq (16,9 %), Uchqo’rg’on (17,8 %), To’raqo’rg’on (19,0 %) va Norin (30,1 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Voloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra)*

Bugungi kunda viloyatda 6 423 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2 545 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 39,6 % i) Namangan shahriga, 512 tasi (8,0 %) Uychi tumaniga, 480 tasi (7,5 %) Namangan tumaniga, 479 tasi (7,5 %) Chust tumaniga, 470 tasi (7,3 %) Kosonsoy tumaniga, 418 tasi (6,5 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'gri kelmoqda.

| Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, *birlikda* | Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, *birlikda* |
|---|---|




2020- yilning yanvar-oktabr oyida viloyatda 1 313 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 347 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 26,4 %) Namangan shahrida, 145 tasi (11,0 %) Uychi tumanida, 123 tasi (9,4 %) Kosonsoy tumanida, 122 tasi (9,3 %) Namangan tumanida, 108 tasi (8,2 %) To'raqo'rgo'n tumanida hamda 97 tasi (7,4 %) Chust tumanida tashkil etildi.

**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari**

*2020- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Namangan shahar (2 545 ta), Uychi (512 ta), Namangan (480 ta), Chust (479 ta), Kosonsoy (470 ta), To`raqo`rg`on (418 ta) tumanlari qayd etildi.







2020-yilning 1 noyabr holatiga ko‘ra viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Mingbuloq (172 ta), Pop (252 ta), Chortoq (257 ta), Yangiqo’rg’on (273 ta), Norin (281 ta) hamda Uchqo’rg’on (284 ta) tumanlari qayd etildi.

**Sanoat statistikasi bo’limi**

*Tel.: (69) 227-84-80*